

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi
G'uzor Moliya - iqtisodiyot kolleji
Yo'nalish: «Informatika va axborot texnologiyalari»

Diplom ishi himoyasiga
ruxsat berildi
O'quv ishlab chiqarish bo'yicha
director o'rinbosari _____
" ____ " _____ 2010 yil

DIPLOM ISHIGA

Tushuntirish xati

Mavzu: "Norton Commanderda ishlash".

Guruh 7-2007 IKT

Kasbi: 1. Kompyuter tarmoqlari montajchisi.
2. Offis jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish texnigi.

Bajardi: _____ **Alimardonov L.**
Rahbar: _____ **Mirzayev J.**

Maslaxatchilar:

1. Nazariy qism: _____ **Mirzayev J.**
2. Texnologik qism: _____ **Mirzayev J.**
3. Iqtisodiy qism: _____ **Mirzayev J.**
4. Mehnat muhofazasi: _____ **Mirzayev J.**

Taqrizchi : _____

G'uzor 2010.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

O'rta maxsus, kasb - hunar ta'limi markazi

G'uzor moliya-iqtisodiyot kolleji

“Tasdiqlayman”

O'quv ishlab chiqarish
bo'yicha direktor o'rinbosari
_____ M.Aliqulov

2010 yil “_____” _____
guruhning bitiruvchisi _____
(ism –familiyasi)

“Norton Commanderda ishlash”
mavzudagi diplom ishini bajarish bo'yicha

Topshiriq

№	Bajarilishi kerak bo'lgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Eslatma
1	Kirish		
2	Nazariy qism		
3	Texnologik qism		
4	Iqtisodiy qism		
5	Mehnat muhofazasi		
6	Xulosa		

Topshiriq berilgan vaqti: 2010 yil “_____” _____
Topshiriq bajarish muddati: 2010 yil “_____” _____

Aniq fanlar kafedrası

(imzo)

Qorayeva D.

Diplom ishi rahbari:

(imzo)

Mirzayev J

_____ 2010 yil

M U N D A R I J A

1. Diplom ishini bajarishda qo'yilgan vazifalar.....
2. Diplom loyihasining mazmuni.....
3. Kirish. Windows operatsion sistemasi.....
4. Fayllar, ularning turlari va tashkil etilishi.....
5. Katolog haqida ma'lumot.....
6. Fayl tushunchasi.....
7. "Norton Commanderda ishlash".....
8. Jihozlar.....
9. Iqtisodiy qism.....
10. Mehnat muhofazasi.....
11. Xulosa.....
12. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

Diplom ishini bajarishda qo'yilgan vazifalar.

Kompyuter - inglizcha so'z bo'lib, u hisoblovchi demakdir. Garchand u hozirda faqat hisoblovchi bo'lmasdan, matnlar, tovush, video va boshqa ma'lumotlar ustida ham amallar bajaradi. Shunga qaramasdan hozirda uning eski nomi – kompyuter saqlangan. Uning asosiy vazifasi turli ma'lumotlarni qayta ishlashdan iborat. Avvalo shuni aytish lozimki, ko'pchilikning tushunchasida go'yoki biz kundalikda foydalanadigan faqat shaxsiy kompyuter bor xolos. Bunga albatta sabablar ko'p. Shulardan biri hozirgi zamon shaxsiy kompyuterlari ilgari universal deb hisoblangan kompyuterlardan tezligi va xotira hajmi jihatidan ancha oshib ketganligida bo'lsa, ikkinchi tomondan ko'p masalalarni yechish uchun bu kompyuterlar foydalanuvchilarni qanoatlantirishidadir.

Diplom ishini bajarishda men kompyuter ishlaydigan tizimlar haqidagi ma'lumotlardan foydalandim. Juda ko'p tashkilot va o'quv yurtlari hozirgi kunda oddiy kompyuterlar bilan bir qatorda axborot texnologiyasini ta'minlovchi DOS, NC texnologiyalaridan foydalanib kelmoqda. Men diplom ishimda shu operatsion tizimlarni ishlatish va ulardan foydalanib borish yo'llarini ochib berishga va fayl va katologlar bilan ishlash yo'llarini ochib harakat qildim. Kompyuter faqatgina DOS buyruqlarini tushunadi. DOS bilan kompyuter orasida interfeys matnli bo'lib, barcha buyruqlar klaviatura yordamida kiritiladi. NC esa bu tanlangan buyruqni DOS buyrug'iga o'tkazib beradi, ya'ni tarjimon rolini o'taydi. Diplom ishimning vazifasi MS DOS va NC dasturlarida katolog va fayllar bilan ishlash ular ustida turli buyruqlar bajarishdan iborat. Windows dastur bu dasturlardan farqi shundaki fayl va katologlar bilan ishlash yaqqol namoyon bo'lib turadi. Windows dasturi boshqa dasturlarda uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etadi.

Diplom loyihasining mazmuni.

Ushbu diplom ishini bajarishda men hujjatlar bilan ishlashni taminlovchi fayl katologlar haqida ma'lumot berishga harakat qildim. Diplom ishini bajarishda men quyidagi ishlarni amalga oshirdim: Kirish qismida Windows operatsion sistemasi ma'lumot berdim. . Diplom ishimning nazariy qismida Fayl tushunchasi, Katolog haqida ma'lumot, Fayllar, ularning turlari va tashkil etilishi yoritib berishga harakat qildim. Texnologik qismda MS-DOS operatsion tizimida fayl va katologlar bilan ishlash. Norton Commanderda ishlash. Windowsda fayllar va papkalar bilan ishlashi. MS DOS operatsion tizimida fayl va katologlar bilan ishlash va ulrdan nusxa olish, o'chirish fayl va katologlar hosil qilishni amalga oshirdim. Nc dasturini ishga tushirish yo'llari va ularda fayl va katologla ustida olib boriladigan amallarni bajarish yo'llarini ochib berdim. Windowsda fayl va kataloglar ustida amallar, fayl va katologlar yaratish va ulardan nusxa olish, fayl va katologalarni o'chirish kabi ishlarning bajarilishi ochib berildi.

“Norton Commanderda ishlash”.

R E J A :

I. Kirish. Windows operatsion sistemasi.

II. Nazariy qism:

- 1. Fayllar, ularning turlari va tashkil etilishi.**
- 2. Katolog haqida ma'lumot.**
- 3. Fayl tushunchasi.**

III. Texnologik qism:

- 1. “Norton Commanderda ishlash”.**

IV. Jihozlar.

V. Iqtisodiy qism.

VI. Mehnat muhofazasi.

VII. Xulosa.

Windows operatsion sistemasi.

Windows keng doiradagi foydalanivchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, ixtiyoriy sohadagi masalalarni yechmasda, ularni yechish uchun qulay vosita rolini o'ynaydi. Windows muhiti foydalanivchi uchun qulay bo'lgan ko'pgina imkoniyatlarga ega bo'lgan dasturdir. U MS DOS imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Windows muhitida ishlash natijasida foydalanivchi ko'pgina qulayliklarga ega bo'ladi. Bunday fayl va kataloglarning nusxasini olish, ko'chirish, qayta nomlash, o'chirish va hokozha amallarni tezda va yaqqol bajaradi. Shubilan birga bu dastur bir paytning o'zida bir necha katalog bilan ishlash, bir nechamasalalarni yechish, ixtiyoriy printer va displey, MS DOS dasturlari bilan ishlash xususiyatiga ega. Yagona interfeycga, ya'ni Windows turli versiyalari va dastur ilovalari bilan ishlashning standart qoidalariga egaligi muhimdir.

Hozirgi kunda Windows millonlab foydalanivchilarning e'tiborini o'ziga tortdi. Microsoft firmasi Windowsni takomillashtirish borasida tinimsiz ish olib bormoqda. Shu bilan birga turli dasturlar ilovalarining yaratilishi Windowsning imkoniyatlarini yanada oshirmoqda. Bu Microsoft Word, Page Maker, Excel, Corel Draw va boshqalardir.

Windows 32 razryadli amaliy dasturlarni ishlatish imkoniyatini beradi. 32 razryadga mo'ljallangan amaliy dasturlar interfeysi Application Programming Interface (API) hozirda ko'p ishlatiladigan tarmoq operatsion tizimlarni qo'llaydidan yangi dasturlar yaratilish imkoniyatini beradi. Hatto kompeyuter tarmoqlarini ishlatish va tizim administratorlari (boshqarivchilari)dan foydalanish jarayonini qator qulayliklarga ega bo'ladi.

Windowsni ishchi holatida saqlab turish va uni o'rnatishilgariga nisbatdan kam vaqt va urinishlarni talab qiladi. Tizim shunday "aqlilashganki", u qator murakkab amallarni mustaqil o'zi bajaradi. Bunday amallar sifatida periferiya qurilmalarining ishlashini ta'minlash, foydalanivch muhitini qayta o'zgartirish (yangi imkoniyatlarni qo'shash) va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Windowsning qo'llanishda foydalanivchilarni o'qitish, o'rgatish, tizimini ishchi holda saqlab turish, uni sozlashishlarini tez va ortiqch harakatsiz amalga oshirish mumkinligi bu sohaga ketadigan xarajatni keskin kamaytiradi.

Windowsning ba'zi imkoniyarlari qo'yidagilardir:

-Universal grafika-Windows dasturlarning qurilmalarga vadastur ta'minotiga bog'liqsizligini ta'minlaydi.

-Yagona interfeys-Windowsdan foydalanivchining muloqati yagona, ya'ni turli dasturlar bilan ishlash qoidalari umumiydir. Shuning uchun yani dastur bilan ishlaganingizda bu qoidalaridan foydalanishingiz mumkin.

-Mavjut dastur ta'munoti bilanmuvofiqligi-Windows MS DOS ning barcha amaliy paketlari, muharrirlari, elektiron jadvallarni ishininta'minlaydi.

-Ko'p masalaliligi –Windows bir paytning o'zida bir nech hujjatlar bilan ishlaydi bir dasturdan boshqasiga o'tishni taminlaydi.Mavjut tezkor xotiradan to'liq foydadalani sh imkoniyati mavjud.Qurilma resuslaridan ham to'liq foydalanadi.Windows qurilmalari orasidagi muloqatni dasturlarning o'zi ta'minlaydi.

-Ma'limotlar almashinuvi-Windows dasturlararo ma'lumot almashish imkoniyatiga ega. Bu maxsus Clipboard (ma'lumot almashish buferi) yoki DDE (Dinamic Data Exchange- ma'lumotlarning dinamika almashinivi, ya'ni boshqa dastur natijalaridan foydalanish), OLE (Object-Linking Emboding-dastur ilovalarida ma'lumotlardan tahrirlangan holda foydalanish) yordamida amalga oshiriladi.

Dasturlardan foydalanishning oddiyligi tufayli foydalanivchini o'rgatishga talablar kamayadi va tajribali foydalanuvchilar tizimining yangi imkoniyatlarni tashqi yordamsiz o'zi o'rganishi mumkin. Bunung uchun Пуск- ushirish tugmasidan, masalalar panelidan,“Проводник” (Windows bo'ylab boshlovchi), dasturlar ustida, ma'lumot berishing yangi tizimlari va imkoniyatlaridan foydalaniladi. Kompyuter tarmoqlarini ishchi holatida saqlab turish, o'rnatish, sozlash Windowsning ichki imkoniyatlari mavjud bo'lib, u bunday ishlarni tez bajaradi.

Windowsda 32 razriyadli NetBEUI, IPX|PX yoki TPC|IP protokollari va NDIS yoki ODI drayverlari o'rnatilgan NetWare yoki Microsoft kompyuter tarmoqlarini qo'llaydigan ichki imkoniyatlar mavjut.

Windows turli kompyuter tarmoqlari uchun juda qulay dastur vositasi bo'lib,o'zida taqsimlangan kompyuter tarmoqlari, elektiron pochta, ko'chma kompyuterlar (ingilizcha Notebook), mul'timedia vositalarini qo'llashi vaboshqa xususiyatlar bilan alohida ajralib turadi.


Bundan tashqari, Windows ilgari MS DOS, Windows tizimlari yordamida ishlatiladigan amaliy dasturlar bilan bemolal ishlaydi. Windows uzoq masofada joylashgan kompyuter tarmoqlari bilan ishlashni soddalashtiradi.

Fayllar, ularning turlari va tashkil etilishi



Fayl — bu axborotni tashqi tashuvchilardagi nomlangan qiymatlar yig'indisidir. SHK da fayl tushunchasi asosan disklarda (kamroq kassetali magnit lentasida) saqlanayotgan qiymatlar uchun qo'llaniladi va shuning uchun fayllar shu axborot tashuvchilardagi xotira uchastkasi (soxasi, maydoni) bilan bir-biriga tenglashtiriladi.

Fayllarda saqlanayotgan qiymatlar — bu algoritmik yoki mashina tilidagi dasturlar; dasturning ishlashi uchun boshlang'ich qiymatlar yoki dasturlarning bajarilish natijalari; ixtiyoriy matnlar; kodlangan tasvirlar va sh.o'. DOS dagi fayl tushunchasi qiymatlar massivi bilan ishlaydigan tashqi qurilmalarda va kompyuter blokklarida: printer, klaviatura, displey, tezkor xotira (virtual disklar) va b. umumlashadi.



Faylli tizim — DOS ning fayllar ustida operaciylar bajarilishini ta'minlaydigan funkcionl qismidir. DOS fayllarni ikki xil formatga (shaklga): ikkilik va matnli fayllarga ajratadi.

Ikkilik fayl odatda qayd qilingan uzunlikdagi mantiqiy yozuvlarda gURO'hlngan baytlar ketma-ketligidan tashkil topgan. Ikkilik fayllarda bajariladigan dasturlar va qiymatlar ichki ko'rinishda (ikkilik, kodli) saqlanadi. Bajariladigan dasturli fayllar ularni bajarish uchun ishga tushirilganda aniq bir strukturaga ega bo'lishi kerak, bu strukturani DOS albatta tahlil qiladi. Ikkilik faylni displeyga yoki printerga chiqarganda uning ichidagi narsani o'qib bo'lmaydi, chunki bunda uqilayotgan 8 ta razryadli ikkilik kodlar (baytlar), agar bu kod grafik ko'rinishga ega bo'lmasa va qurilmaga hech qanday ta'sir ko'rsatmasa, ixtiyoriy grafik belgilarga, tovushli signallarga o'tkaziladi yoki umuman qabul kilinmaydi.

Matnli fayl (ASCII fayli) har biri faylning mantiqiy yozuvi bo'lgan, o'zgaruvchan uzunlikdagi satrlar ketma-ketligidan tashkil topgan. Har bir satr faqat matnli belgilarni o'z ichiga opadi va satr oxiridagi marker bilan yakunlanadi. ASCII ning istalgan belgisi matnli belgi bo'lishi mumkin, lekin ikkilik fayldan farqli ularoq matnli fayldagi belgilar ketma-ketligi odam tomonidan ekranda yoki printerda bevosita qabul qilinadi. Matnli fayl algoritmik tildagi dastur matmini (Assembler, Beysik va b.), jadvalni, masalani echishning boshlang'ich va natijaviy qiymatlarini, hujjatlarni, ilmiy axborotlarni va sh.o'. o'z ichiga olishi mumkin. ,

DOS da har bir fayl bilan quyidagilar bog'langan:

- faylning to'liq nomi;
- faylning atributlari (tavsiflari); ;
- faylning yaratilish sanasi;
- faylning yaratilish vaqti;
- faylning uzunligi.

Faylning to'liq. nomi DOS da umumiy holla ikki qismdan: identifikatsiyalovchi — fayl nomidan va tasniflovchi — fayl kengaytmasidan tashkil topgan. Fayl tipini aniqlovchi kengaytma bo'lmasligi ham mumkin.

Fayl nomida 1 tadan 8 tagacha belgilar bo'lishi mumkin. U majburiy element hisoblanadi va faylga murojaat qilinganda har doim ko'rsatilishi kerak.

Kengaytma 1 tadan 3 tagacha belgilarga ega bo'lishi mumkin va fayl nomidan "nuqta" (.) belgisi bilan ajratiladi.

DOS fayl nomida va kengaytmasida turli belgilar bo'lishiga ruxsat etsa ham, lekin lotin alfaviti harflarini va raqamlarni ishlatish, nomni esa albatta harfdan boshlash tavsiya etiladi.

Fayl nomini belgilashda ular faylning ma'nosini o'z ichiga oladigan qilib hosil qilish tavsiya etiladi.

Kengaytma fayl tipini ko'rsatadi, shu bilan bir qatorda kengaytmalarning ba'zi birlari DOS yoki dasturli tizim uchun standart hisoblanadi, masalan:

- EXE (EXEcutable — bajariladigan) — bajarishga tayyor bo'lgan, mashina tilidagi fayl-dastur;

- COM (COMmand) — bajarishga tayyor bo'lgan, mashina tilidagi fayl-dastur (uncha katta bo'lmagan dastur);
- VAT (BATch — bog'lam, gURO'h) — paketli bajariladigan buyruqli fayl;
- BAS — BASIC tilidagi fayl-dastur;
- PRG — Dbase tilidagi fayl-dastur;
- TXT — DOS ning matnli fayli;
- DOC — Windows ning matnli fayli;
- XLS — Excel elektron jadvallar fayli;
- VAK — asl nusxani qayta yozishda yaratiladigan fayl nusxasi;
- ZIP — arxiv fayli.

Yuqorida keltirilgan kengaytmalar ro'yxati eng ko'p uchraydigan kengaytmalarni o'z ichiga oladi va holi unchalik to'liq emasdir. Translyatorlar, tizimli dasturlar va amaliy dasturlar paketlarida muayyan dasturli maxsulot uchun standart hisoblangan kengaytmalar qo'llaniladi.

Fayl nomlarida standart kengaytmalarning ishlatilishi kompyuterga qisqa signallar bo'yicha (masalan, klavishani bosish bilan) kerakli qayta ishlash jarayonini avtomatik tanlash imkonini beradi.

Fayl tizimini mantiqiy tashkil etish

Diskli xotirada saqlanayotgan fayllarni tartibga solishning fayl tizimini mantiqiy tashkil etish deb ataladi. Bunda mantiqiy tashkil etishning asosi kataloglardir.

Katalog — bu boshqa fayllar qayd qilinadigan maxsus fayldir. "Katalog" atamasi bilan bir qatorda DOS axborotlarida va uning hujjatlarida shu faylni identifikatsiyalash uchun yana "bo'lim", "direktoriya" atamayaari ham ishlatiladi.

Katalogda unga kiruvchi fayllarni tavsiflovchi barcha ma'lumotlar va diskning qaysi joyida fayl joylashganligi to'g'risidagi ma'lumotlar joylashadi.

Faylning o'zi esa hech qanday qo'shimcha ma'lumotnomali axborotsiz baytlar ketma-ketligi kabi saqlanadi.

Katalog, o'z navbatida, boshqa katalog tarkibiga kirishi mumkin, uning qismkatalogi bo'lishi mumkin. Boshqa hech qanday narsaning qismkatalogi hisoblanmagan eng yuqorigi katalog **o'zakli katalog** (Root Directory) deb ataladi. O'zakli katalog uchun joy diskni formatlashda (belgilashda) band qilinadi va standart uzunlikka — 3584

baytga ega (ya'ni 112 ta 32 baytli yozuvlar sigadi, agar katta bo'lsao'u holda ularni oldindan qims kataloglarga birlashtirish kerak). O'zakli katalog DOS vositalari bilan o'chirib tashlanishi mumkin emas.

O'zakli katalogning har bir elementi (fayl yoki qismkatalog) 32 bayt o'lchamga ega va 8 ta maydonni o'z ichiga oladi, fayllar uchun bu:

- fayl nomi — 8 bayt;
- fayl nomi kengaytmasi — 3 bayt;
- fayl atributa — 1 bayt;
- zaxira — 10 bayt;
- faylni yaratish yoki oxirgi o'zgartirilgan vaqti (soat, minut, sekund) — 8 bayt;
- faylni yaratish yoki oxirgi o'zgartirilgan sanasi (yil, oy, kun) - 2 bayt;
- faylning diskda boshlanadigan klaster nomeri — 2 bayt;
- faylning baytlardagi haqiqiy uzunligi — 4 bayt.

DOS ning fayl tizimi ierarxik, ko'p darajali yoki teskarisiga aylantirilgan daraxt ko'rinishdagi faylli strukturani shakllantirishni ta'minlaydi, uning asosida o'zakli katalog joylashgan, kataloglar va fayllar esa uning shoxlari hisoblanadi.

Kataloglar daraxti misolini ko'rib chiqaniz (17-rasm).

Bu misolning fayl strukturasi o'zakli katalogda ASM, VIR va DBASE qismkataloglarini o'z ichiga oladi, ular kompilyatorlar, virusga qarshi himoya dasturlarini va Assembler tilida va qiymatlar bazasini boshqaradigan tizimning Dbase tilida yozilgan dasturlarni o'z ichiga oladi. O'z navbatida, ASM qismkatalogi masn.exe Assemblerini (kompilyator) va ASMPROG qismkatalogini o'z ichiga oladi, ularda Assembler tilida yozilgan dasturli fayllar joylashgan. VIR qismkatalogi aidstest.exe va dir.exe fayllarini o'z ichiga oladi.

DBASE qismkatalogi clipper.exe dastur-kompilyatorni, DBPROG qismkatalogini va ba'zi bir boshqa fayllarni o'z ichiga oladi.

Fayllarni kataloglarga birlashtirish ularni qandaydir yo'l bilan diskda bitta joyda gURO'hlanganligini bildirmaydi. Bundam tashqari, bitta fayl butun disk bo'ylab "sohib tashlangan" (lavholanib tashlangan) bo'lishi mumkin.

Faylning alohida qismlarini joylashgan joyi to'g'risidagi axborot shu diskda joylashgan **fayllarnng joylashish jadvalida** (FAT—File Allocation Table) saqlanadi.

Fayl specifikaciyasi. DOS faylga murojaat qila olishi uchun ushbularni ko'rsatish kerak:

- diskni;
- katalogni;
- faylni to'liq nomini.

Bu ma'lumot quyidagi formatga ega bo'lgan fayl specifikaciyasida bo'ladi:

[drive:] [/][path/] Filename [.type].

yoki o'zbek tilidagi varianti:

[diskdan kiritish qurilmasi:] [/] [y/l] [faylning nomn [kengaytma].

Kvadrat qavslar ularning ichiga kiritilgan elementlar bo'lmasligi mumkinligini bildiradi. Kvadrat qavslarning o'zi sintaksis belgi hisoblanadi va specifikaciyada ishlatilmaydi. Specifikaciyaning hammasi probellarga (bo'sh joylarga) ega bo'lmasligi kerak. drive elementa (diskdan kirituvchi qurilma) fayl joylashgan yoki u yozilayotgan diskni anglatadi, masalan, A, V:, S:, D: va x,k.

Path (yo'l) — bu katalog yoki kataloglar ketma-ketligi bo'lib, bu kataloglardan kataloglar daraxti bo'yicha, fayl joylashgan kataloggacha borish kerak.

Katolog haqida ma'lumot.

Magnitli disklarda fayl nomlari kataloglarda jamlanadi . Kataloglar Windovis da jild (papka) deb yuritiladi. Har bir katalog o'z nomiga ega bo'lib, uning ichida boshqa kataloglar joylashishi mumkin.

Tashqi katalog – *tub*, ichki katalog – *ost* katalog deb yuritiladi. Demak, diskga Kataloglar daraxt ko'rinishida joylashgan bo'ladi. Foydalanuvchi ishlatayotgan katalog joriy katajog deyiladi . Katajogda joylashgan faylni ishlatish uchun albatta faylga borish yo'li ko'rsatilishi lozim. yo'l kataloglar ketma- ketligi bo'lib, ular \ belgisi bilan ajratilgan bo'ladi. Kompyuterlarda qattiq disk, disket va kompank disklar uchun mo'ljallangan disk yurutivchilar mavjud bo'ladi. Ularga murojaat A, B, C, D, E harflari orqali amalga oshiriladi.

Agar katalogda faylning nomi bo'lsa, u holda fayl shu katalogda joylashgan bo'ladi. Har bir magnitli disketada kataloglar soni bir nechta bo'lishi mumkin. Har bir katalog o'zining nomiga ega.

Misol uchun, quyidagi taqqoslashni keltirish mumkin. Kitob-bu disketa, kitobdagi boblar - bu kataloglar, xar bir bobdagi, paragraflar- bu fayllardir.

Kataloglarga fayllar kabi nom beriladi. Odatda, katalog nomida kengaytgich bo'lmaydi. Bir katalog boshqa bir katalogda qayd qilinishi mumkin. Agar **X** katalog **Y** katalogida qayd qilingani bo'lsa, u xolda **X** - ichki katalog deyiladi, **Y** esa - tashki katalog hisoblanadi. Har bir magnitli disketada bosh yoki tub katalog bo'ladi, unda fayllar va 1- bosqichdagi ichki kataloglar qayd etiladi. 1-bosqichdagi ichki kataloglarda fayllar va 2-bosqich kataloglari qayd etiladi va xokazo. Natijada magnitli disketada kataloglar va fayllarning daraxtsimon tuzilishi xosil bo'ladi. ***Magnitli disketadagi fayllar va kataloglar tizimiga misol.***

Fayl tushunchasi

Qattiq disk, disket kompyuterning kompakt disklaridagi barcha ma'lumotlar fayllarda saqlanadi.

Fayl - biror ma'lumotlar saqlanuvchi diskning nomlangan sohasi. Demak, har bir fayl o'z belgisiga ega bo'lishi, uni foydalanuvchi va operatsion tizim tushunishi va ishlata olishi kerak. Diskda ma'lumotlarni boshqa yo'sinda yozib bo'lmaydi. Hattoki, birgina harfni diskka yozish zarur bo'lsaham, unga nom berib, fayl ko'rinishida xotirada saqlash kerak.

Fayllar ikki turda, matnli va grafkli bo'lishi mumkin. Matnli fayl foydalanuvchi o'qishi uchun mo'ljallangan. matnli bo'lmagan fayllar grafikli yoki kodda yozilgan bo'ladi.

Fayl - bu disketaning ma'lum nom bilan ataluvchi sohasidir. Faylda dastur va hujjat matnlari, bajarilishi mumkin bo'lgan dasturlar va xokazolar saqlanadi.

Matnli fayllar foydalanuvchi o'qishi uchun muljallangan. Har bir fayl ikki qismdan iborat bo'lgan nomga ega. Fayl nomining birinchi qismi asosiy qismi xisoblanadi va 1 tadan 8 tagacha belgidan iborat bo'ladi. Fayl nomining ikkinchi qismi kengaytgich deyiladi va 1 tadan 3 tagacha belgidan iborat bo'ladi. Fayl nomining asosiy qismi kengaytgichdan nuqta bilan ajratiladi.

Masalan:

sommand.com

autoexec.bat

ma'ruza.txt

ru- 2kurs.doc

Faylga nom berishda faqat lotin harflaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Fayl nomida kengaytgich bo'lishi shart emas. Lekin kengaytgich, qoidaga kura, faylning qaysi turda ekanligini aks ettiradi va shu bilan foydalanuvchiga qulaylik yaratadi.

Masalan:

.com va **.exe** ishlatishga tayor kamondali va bajariladigan faylar;

.bat - buyruq fayllar;

.bak - faylning o'zgarishdan avvalgi nusxasi;

.txt - matnli fayl;

.doc – matnli, hujjatli fayl;

.bas - Beysik tilida tuzilgan dastur fayli;

.pcx va **bmp**- grafik va tasvirli fayl;

.pas - Paskal tilidagi dasturli fayl.

Fayl nomlari magnit disketalarda kataloglarda qayd qilinadi.

Norton Commanderda ishlash

Fayllar va kataloglar ustida ba'zi amallarni bajarish

Almashgan (inversli) rang bilan tasvirlanadigan (kursor bilan ajratilgan) fayl yoki katalog aktiv yoki ajratilgan deyiladi. Ajratilgan satrni kursorni siljitish klavishalari bilan ekran paneli bo'yicha siljitish mumkin.

Birdaniga bir nechta fayllarni ajratish mumkin — Ins klavishasini bu fayllarni nomlariga bosish yo'li bilan juda oddiy bajariladi.

Kursorni boshqa panelga ko'chirish uchun **Tab** klavishasini bosish kerak, qismkatalog tarkibini chiqarish uchun kursorni uning nomiga o'rnatish va **Enter** klavishasini bosish kerak.

Fayl yoki katalog ustida biror amalni bajarish uchun kursorni uning nomiga o'rnatish va funktsional klavishalardan birini yoki **Enter** klavishasini bosish kerak.

Agar biror fayl yoki katalog ajratilgan bo'lsa, Enter klavishi bosilganda quyidagi ishlar bajariladi:

- agar kursor ".." da bo'lsa, u holda katalog ustiga siljish bajariladi;
- agar kursor qismkatalog nomida bo'lsa, u holda shu qism katalogga siljish bajariladi;
- agar kursor bajariladigan fayl nomida bo'lsa (fayl .exe, .com yoki .bat kengaytma tipiga ega bo'ladi), u holda bu fayl bajarish uchun ishga tushiriladi;
- agar kursor matnli fayl nomida bo'lsa, u holda mos keluvchi sozlash bor bo'lganda fayl uni taxrirlash uchun ekranga chiqariladi.

NC da fayl va kataloglar bilan ishlash

Operatsion qobiqda sozlangan matnli muharriri bor, u uncha murakkab bo'lmagan hujjatlarni (rasmsiz, diagrammasiz va b.) tuzish va taxrir qilish uchun juda qulaydir.

Muharrirlar bilan ishlashda bajariladigan asosiy jarayonlar quyida tushuntirilgan:

- ajratilgan matnli fayl bilan ishlash uchun muharrirni chiqarish — F4 klavishasini bosish kerak;
- yangi faylni yaratish va taxrir qilish — **Shift** + F4 klavishalarini bosish kerak;
- taxrir qilingan faylni saqlash — F2 klavishasini bosish kerak;

- muharrirdn chiqish — F10 klavishasini bosish kerak;
- matnda blokni ajratish — F3 klavishasini bosish kerak;
- blok ajratishni inkor qilish — **Shift** + **F3** klavishalarini bosish kerak;
- ajratilgan blokni kursorning joriy holati bilan ko'rsatilgan joyga siljitish — F6 klavishasini bosish kerak;
- ajratilgan blokni kursorning joriy holati bilan ko'rsatilgan joyga nusxalash — F5 klavishasini bosish kerak;
- ajratilgan blokni o'chirish — F8 klavishasini bosish kerak;
- ajratilgan blokni ko'rsatilgan faylning oxiriga yozish — Alt + F10 klavishalarini bosish kerak;
- boshqa fayldan matnni kursorning joriy holati bilan ko'rsatilgan joyga qo'yish — Alt + F5 klavishalarini bosish kerak;
- matnni namuna bo'yicha kursordan oldinda qidirish — F7 klavishasini bosish kerak;
- matnni namunalar bo'yicha kursordan oldindan qidirish va almashtirish — F4 klavishasini bosish kerak;
- joriy satrni o'chirish — **Ctrl** + **U** klavishalarini bosish kerak;
- bo'sh satrni qo'yish (kursor satr oxirida) — **Enter** klavishasini bosish kerak;
- matn ichida kursorni harakatlantirish kursorni boshqarish klavishalari bilan amalga oshiriladi;
- matndan tashqarida kursorni harakatlantirish **Enter** va **Space** klavishalari bilan amalga oshiriladi.

Muharrir bilan ishlash bo'yicha qo'shimcha tushuntirishlarni F1 klavishasini bosib olish mumkin.

Funkcional klavishalarning vazifalari to'g'risidagi ma'lumotlarni matn muharriri oynasining pastidagi ishchi menyuda ko'rish mumkin; funksional klavishalarni **Alt** va **Shift** klavishalari bilan birga bosilganda vazifalarining qayta belgilanishini yana o'sha ishchi menyuda, lekin mos ravishda **Alt** va **Shift** klavishalari bosilganda ko'rish mumkin.

Operacion kobikdan chiqish F10 klavishasini bosish bilan chaqiriladigan menyu bo'yicha amalga oshiriladi.

JIHOZLAR

Mazkur ishni bajarishda bir qator jihozlardan foydalanildi. Ular quyidagilar:

1. Pentium-III kompyuteri.
2. HP Laser Jet 1300 PCL 5E printeri.
3. “Microsoft Word 2000 IIIar 3a шагom” elektron o’quv qo’llanmasi.
4. Wicrosoft Windows Me operatsion tizimi.
5. Microsoft Offise tarkibiga kiruvchi Microsoft Word 2000 matn muharriri.
6. Paint Brush grafik muharriri.
7. Power Point prezentasiya dasturi.
8. Har xil o’lchamdagi kompakt disklar.
9. Sony, Fullamark markali 1.44 dyumli disketalar.

Pentium-III kompyuterida Windows operatsion tizimi, tizimning ishlash prinsiplari turli elektron o’quv qo’llanmalari yordamida o’rganildi. Paint Brush grafik muharriridan ish matnida zarur hollarda kerakli rasmlar tanlanib, ishlov berilgan holda qoyib borish uchun foydalanildi. Fayllar ustida amallar bobi bo’yicha turli kompakt disklar, egiluvchan magnit disklar foydalanildi. Loyiha matni HP Laser Jet 1300 PCL 5E printerida bosmaga chiqarildi.

IQTISODIY QISM

Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida moddiy muhitning ob'ektlari asosiy mehnat predmetlari bo'lib kelgan. Davlatning qudrati esa, eng avvalo oltin zahirasi, mehnat va tabiiy resurslari, hududi, joylashgan o'rni, aholi soni va shu kabilar bilan aniqlanadi. Endi esa bu mezon o'z mohiyatini o'zgartirib bormoqda.

Buning sababi quyidagicha:

Avvalo inson tomonidan to'planayotgan bilimlar nihoyatda yuqori sur'atlar bilan ortib bormoqda. Masalan, 18 asrlarda bu hajm har 50 yilda 2 marta oshgan bo'lsa, 1950 yilga kelib har 10 yilda, 1970 yilda har 5 yilda, hzirga kelib har 2 yilda ikki martaga oshib bormoqda.

Ushbu bilimlar manbasidan foydalanish samaradorligining o'sishi, hamda inson faoliyati davomida qayta ishlanadigan informatsiya hajmining ortib borishi mehnat resurslarining moddiy informatsion sferaga qayta taqsimlanishiga olib kelmoqda.

Shunday qilib, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar bilan bir qatorda yangi – informatsion resurs tushunchasi ham sekin-asta yetakchi rollarni egallay boshladi.

Ko'pgina rivojlangan davlatlar o'zlarining eksport-import siyosatlarini qayta ishlab chiqib, chetdan ko'proq zarur bo'lgan tabiiy resurslarni olib, tashqariga ko'proq o'zlashtirish, ilmiy texnikaviy bilimlarni va informatsion texnologiyalarni sota boshladilar.

Men diplom ishimda Windows muhitida fayl va kataloglar bilan ishlash natijasida foydalanuvchi ko'pgina qulayliklarga ega bo'ladi. Bunday fayl va kataloglarning nusxasini olish, ko'chirish, qayta nomlash, o'chirish va hokozalar amallarni tezda va yaqqol bajaradi. Shu bilan birga bu dastur bir paytning o'zida bir necha katalog bilan ishlash, bir necha masalalarni yechish, ixtiyoriy printer va displey, MS DOS dasturlari bilan ishlash xususiyatiga ega.

Biz bajargan ish bo'yicha iqtisodiy tomonlarni ko'radigan bo'lsak hozirgi kunda turli tuman kompyuterlardan foydalanib borib biz o'z ma'lumotlarimizni fayllarda yoki kataloglarda saqlashimiz, va kerak paytda foydalanishimiz mumkin. Foydalanuvchilar bulardan ishlash uchun eng qulayini tanlashi kerak bo'ladi. Bu esa vaqtni tejaydi o'quvchining fikrlash doirasini kengaytirib boradi.

MEHNAT MUHOFAZASI

Kompyuter o'rnatiladigan xonaga kompyuterlar soniga qarab turib, quyidagi talablar quyiladi: ta'limni axborotlashtirish bu tinglovchilarni komp'yuterda nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bilan bajariladi. Shuning uchun komp'yuter xonasida 5 tadan 20 tagacha komp'yuter o'rnatilishi mumkin. Bizning sharoitimizda uning soni 5 taga teng. Shuning uchun komp'yuter xonasini o'lchamlari quyidagicha bo'lishi kerak: 6x10x2,8 metr.

Stol va stullarga talablar.

Kompyuter xonasida stol va stullarga talablar mavjud bo'lib, stol balandligi erdan 68-77 sm bo'lib, stullar esa aylanuvchan bo'lishi kerak va albatta oriasida suyanchig'i bo'lishi kerak. Chunki stol-stullar o'z gabariti bilan to'g'ri kelmasa, foydalanuvchi tezda charchab qoladi. Stol va stullar shunday joylashtirilishi kerakki, ular insonlarga turib yurishga xalaqit bermasligi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchi bemalol xar bitta tinglovchini oldiga borib, uni qilgan xatolarini kompyuterda bemalol ko'rsata olishi kerak.

Insonni antropometrik o'lchovlarini hisobga olish.

Insonni antropometrik o'lchovlari quyidagicha: o'rtacha balandligi 1 metr 72 sm, elka kengligi 39 sm, qo'llar yoyilmasi 160 sm.

Agarda bu antropometrik o'lchovlar hisobga olinmasa, tinglovchilar ish paytida bir-biriga xalaqit berishi mumkin.

Monitordan insonning ko'ziga bo'lgan optimal masofa.

Monitor ko'zdan ozgina pastroqda va 50 smdan kam bo'lmagan masofada joylashishi kerak. Monitor va ko'z orasidagi masofa 60-70 sm bo'lishi tavsiya qilinadi, bu masofa kichik bo'lsa, insonni ko'zi tezroq charchaydi. Monitorni dizayni va rangi o'ziga etiborni jalb qilmasligi kerak. Shuning uchun monitoring sirt tomonida har xil reklama yopishtirgichlarini olib tashlash kerak. Monitoring ekrani zangori va ko'k ranglarga bo'yalishi shart. Chunki bu ranglar inson ko'ziga eng yaxshi ranglardan hisoblanadi.

Kompyuterda ishlash vaqtida insonning charchash sabablari

Kompyuter bilan ishlash vaqtida inson quyidagi faktorlardan charchaydi:

- ekranni yorug'ligi;
- kontrast va fon o'rtasidagi aniqligi;
- kompyuterda ishlash paytidagi issiqlikdan nurlanishi;
- kompyuterda nurlanishning insonga ta'siri;
- kompyuter buzug'ligi.

Kompyuter xonasidaga talablar.

Xonaning shipi ok-ko'k fon bilan oqlanishi, devorlari esa yashil rangga oqlanishi kerak. Bu ranglar va oftob nurlanishi bizga kerakli rang iqlimini yaratib beradi.

Elektr xavfsizligi.

Kompyuter xonasida hamma jixozlar elektrotokda ishlaydi, shuning uchun elektr shikastlanishiga uchrash mumkin.

Kompyuterlarni yerga ulash va yerga ulash himoyasiga talablar.

Hamma kompyuterlarda elektr tarmog'iga ulash uchun maxsus sistema ishlatiladi va unda "0" ulash himoyasi qo'llanilgan. "0" ga ulash himoyasi bu "0" simini korpuslarga bog'lash va har xil issiqlikda ishlaydigan avtomatlarni ishga tushiruvchi sistemadir.

Shaxsiy komp'yuterdan foydalanish qoidalari.

Shaxsiy kompyuterni ishga tayyorlash va o'chirish tartiblari mavjud. Avvalambor kompyuterning tarmoq kuchlanishiga mosligini tekshirish kerak. Shaxsiy kompyuterlar 220 yoki 110 kuchlanishli elektr tarmoqlarida ishlashi mumkin.

Shaxsiy kompyuterlar uchun kuchlanishning o'zgarishi, ayniqsa keskin o'zgarishlar xavfli bo'lishi mumkin. Shuning uchun maxsus stabilizatorlardan yoki elektr quvvatining uzluksizligini ta'aminlovchi - URS qurilmasidan foydalanish tavsiya etiladi. Maxsus URS qurilmasi elektr quvvatini o'zgarmas holda ushlab turadi, hamda elektr manbai o'chirilgandan keyin muayyan vaqt davomida kompyuter ishlashini ta'aminlab turadi. Bu vaqt kompyuterda bajarilayotgan ishlarni tugatish uchun etarlidir. Masalan, kerakli ma'lumotlarni diskka yozib qo'yish yoki programmalar ishini tugatish uchun va hokazo.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun barcha sohalarini texnik qayta qurollantirish, zamonaviy texnika va texnologiya bilan ta'minlash hamda xalqaro zamonaviy talablarga javob beradigan kompyuter tizimini rivojlantirish bo'yicha juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining zamonaviy kompyuterlar bilan ta'minlanishi, yangi avlod darsliklarining yaratilishining hozirgi zamon yoshlarining bilim, konikma va malakalarini puxta egallagan kadrlar bo'lib yetishishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy EHMLar, shaxsiy EHMLarning rivojlanishi hamda ular dastur taminotining yaxshilanishi ular qilishi mumkin bo'lgan "ishlar" sonini yanada oshirib yubordi. Insoniyat turmush tarzining rivojlanishi yangi – yangi kashfiyotlarning yaratilishiga sabab bo'lmoqda. Biz so'zsiz kompyuter yaratilishini XX asrning buyuk kashfiyotlaridan desak yanlishmaymiz. Davr talabiga ko'ra bugunga kelib kompyuter texnologiyasi juda rivojlanib ketdi. Juda ko'p tashkilotlar, o'quv yurtlari hozirgi kunda oddiy kompyuterlar bilan bir qatorda axborot texnologiyasi ta'minlovchi DOS, NC saqlanib qolgan va bularni Windows inkor etmaydi. Balki Windows bu jabhalar bilan ishlash uchun qulay muhit yaratadi. Ma'lumotlarni boshqarish, ayniqsa tizimlarga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Men diplom ishimda fayl va katologlar bilan ishlash yo'llarini ochib berishga harakat qildim.

FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR:

1. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotiing poydevari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari. T.: "Sharq", 1998.64-b.
2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini dasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. "Ma'rifat" gazetasi. 200 yil, 4 noyabr.
3. S.S.G'ulomov va b. Axborot tizimlari va texnologiyalari. T.: "Sharq".2000.
4. V.E.Figurnov. IBM dlya polzovatelya. M.: "Infra-M".1995.
5. A.Ahmedov, N.Taylaqov. Informatika darsligi. T.: "O'zbekiston". 2002.
6. A.R.Maraximov, S.I.Raxmonqulova. Internet va undan foydalanish asoslari. T.-2001.
7. M.Aripov, A.Haydarov. Informatika asosalari. T.: "O'qituvchi".2002.
8. U.Yuldashev va b. Informatika darsligi. T.-2002.4-20,.
9. Axborot texnologiyalari darsligi. T.: "O'qituvchi".2002.